

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: Qattiq jismlı chiqindilarnı olib chiqish to'g'risida shartnoma.

O'rtaChirchiq tumani XTB – Iste'molchi bir tomondan, "Toza hudud " DUK bo'lib ikkinchi tomondan – "Ijrochi" ,"ISTE'MOLCHI" ning buyurtmasi va mazkur shartnomaga asosan 2022 yil davomida ijrochi tomonidan qattiq maishiy chiqindilarnı olib chiqib ketish,"ISTE'MOLCHI" esa bajarilgan ishlar va xizmatlarning shartnomaga asosan haqini to'lashni o'z zimmasiga olish to'g'risida shartnoma .

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot O'rta Chirchiq tuman XTB bo'limi tomonidan 2022 yil 19 yanvar kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh
yuriskonsulti
2022 yil «19 » yanvar



A.A.Ibragimov

teyneri bo'lgan yuridik shaxslar uchun qattiq maishiy chiqindilarni to'plash
va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatish bo'yicha
SHARTNOMA № 001508

2022 yil 27 iyun

Toshkent viloyati

“Toza hudud” DUK _____ bundan buyon matnda “IJROCHI” deb ataluvchi tomonidan, Ustav (Nizom) asosida faoliyat yurituvchi rahbar _____ bir tomondan, Элма Чиррич Юман ХТБ bundan buyon matnda “ISTE'MOLCHI” deb ataluvchi nomidan, Ustav (Nizom) asosida faoliyat yurituvchi rahbar Б.Б.С. А. Раҳмонов. ikkinchi tomondan ushbu shartnomani, quyidagi maqsadlarda tuzdilar,

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. Mazkur shartnomaga binoan Ijrochi bilan Iste'molchi o'rtasida qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari bo'yicha (QMCH) to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqa o'rnatiladi.

Iste'molchi topshiradi, Ijrochi esa Iste'molchi joylashgan hudud _____ manzildan bir oyda _____ marotaba dona (770 l., 1100 l., 6 m³) chiqindi saqlash konteynerdagi (QMCH) qattiq maishiy chiqindilarni Iste'molchi joylashgan hudud manzilidan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini bajarishni o'z zimmasiga hamda “Yo'nalish varaqasiga” buyurtmachini arizasiga bajargan ishlari yuzasidan belgi qo'ydiradi.

1.2. QMCHni umumiy to'planishi bir oyga 117 m³, bir yilga 351 m³ tashkil etadi.

2. KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR UCHUN HISOB-KITOB QILISH.

2.1. Ushbu shartnomani imzolash paytidagi amaldagi narx har bir m³ QMCH uchun 17 962 425 so'm, QQS bilan _____ so'mni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma bo'yicha bir yillik ko'zda tutilgan to'lovning umumiy qiymati on yetti million toqquz yuz oltmish ikki ming to'rt yuz yigizma besh so'm tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki boshqa normativ huquqiy hujjatlarga asosan ko'rsatilayotgan xizmatlar qiymati o'zgargan taqdirda, amaliyotga tadbiiq etilgan yangi qiymat bo'yicha qattiq va maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari “Ijrochi” tomonidan amalga oshiriladi.

Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi va tariflarining o'zgargani to'g'risida Iste'molchining abonentlik punktlarida e'lonlar osish yo'li bilan shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali Iste'molchiga ma'lum qilish.

2.3. Iste'molchilar, qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun to'lovlarni bevosita Ijrochining bank xisob raqamiga **100foiz miqdorida xar oylik oldindan to'lov asosida** amalga oshirilishi shart.

2.4. Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun to'lovni hisoblash tegishli davrlarda amalda bo'lgan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlar uchun tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

2.5. Yuridik manzil, bank rekvizitlari, korxonalar nomlari yoki QMCH hajmi o'zgargan taqdirda, tomonlarni **10 kun** oldin yozma ravishda ogohlantirish kerak.

2.6. Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha tegishli bo'lmagan sifatdagi yoki belgilangan muddatlardan ortiq uzilishlar bilan xizmatlar ko'rsatilganda, ushbu davrda xizmatlar uchun to'lovlar kamaytiriladi.

2.7. Ijrochi tomonidan Iste'molchining hayoti, salomatligi va mulkiga ziyon yetkazilgan holatlarda yetkazilgan zarar fakti qayd etilgan dalolatnoma tuziladi, u Ijrochi va Iste'molchilarning vakillari tomonidan imzolanadi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega:

Iste'molchi tomonidan shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun neustoyka (jarima yoki to'lanishini qonun doirasida talab qilish;

Ijrochi qonun hujjatlariga muvofiq; belgilangan normativ-huquqiy aktlarga va boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

3.2. Ijrochi quyidagilarga majbur:

Belgilangan muddatlarda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishni amalga oshirish; qonunchilikda, mazkur Qoidalarda va shartnoma belgilangan shartlarga muvofiq Iste'molchiga zarur sifatdagi qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish; qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan muddatlarda Iste'molchining buyurtmanomalarini bajarish;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun elektron to'lov tizimini tatbiq etish va real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqalarining holatini kuzatib borish;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining amalga oshiriladigan rejimi va sifati bo'yicha Iste'molchilarning murojaatlari (arizalari, takliflari, shikoyatlari), shuningdek ularning ijrosi hisobini olib borish;

Iste'molchining murojaatiga asosan, alohida ko'rsatilgan narx bo'yicha buzilishdan qolgan qurilish chiqindilarni, grunt, agrotexnik ishlardan chiqarilgan chiqindilarni (shoh-shabbalar, butalar va boshqalar), olib chiqib ketish uchun qo'shimcha transport vositasini ajratish;

chiqindi to'plash shaxobchalari va konteynerlarining holatini nazorat qilib borish, ularning tegishli holatda bo'lishini ta'minlash;

Iste'molchining murojaatiga asosan, qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun konteynerlarning zarur miqdorda bo'lishini ta'minlash;

aholiining hayoti, salomatligi, shuningdek atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan bakteriyalarning va boshqa zararli moddalarning rivojlanishiga, chiqindilarning ko'plab to'planib qolishiga qarshi rejali ishlarni olib bo'rish (konteynerlar va axlat to'plash shaxobchalarini dezinfeksiyalash yoki yuvib turish yo'li bilan);

To'planib qolgan chiqindilarni hisobini olib borish;

qattiq maishiy chiqindilarning ikkilamchi xom-ashyolarini qabul qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan korxonalariga belgilangan tartibda topshirilishini ta'minlash;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi va tariflarining o'zgargani to'g'risida Iste'molchining abonentlik punktlarida e'lonlar osish yo'li bilan, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali Iste'molchiga ma'lum qilish;

Iste'molchiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bo'yicha kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik va ularni bartaraf etish choralarini qo'llash;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun to'lovlar hisob-kitobining holati, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha qarzdorlarning yo'qligi to'grisidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish;

San Pil Ruz. № 0297-11 binoan chiqindilarni yig'ish shaxobchalarini va qutilarni dezinfeksiya qilish;

3.3. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega: shartnoma asosida, o'ziga zarur bo'lgan, belgilangan sifatdagi, hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan, mulkiga zarar bermaydigan hajmdagi xizmatlardan foydalanish.

Ijrochidan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining hajmi va sifati, ularning ko'rsatilishi shartlari, xizmatlar uchun to'lov miqdorlarining o'zgargani va to'lov tartibi to'grisidagi axborotlarni olish, xizmatlar uchun elektron to'lov tizimi orqali to'lash va real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqalarining holatini kuzatib borish;

Ijrochi tomonidan shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan hollarda Ijrochiga yozma yoki telefon orqali shikoyatlar taqdim etish va Ijrochidan xizmatlar to'liq ko'rsatilmagani faktini tasdiqlovchi dalolatnomani tuzishni, shuningdek aniqlangan kamchiliklarning belgilangan muddatlarda bartaraf etilishini talab qilish;

shartnomaga muvofiq, vaqtincha ishlab chiqarish ishlari bo'lmagan, hujjatlar bilan tasdiqlangan davr yoki shartnomada belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatilmagan davr uchun qattiq va suyuq

chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun haq to'lash majburiyatlaridan to'liq yoki ozod qilinish;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari sifatsiz amalga oshirilsa, agar Ijrochi vaqtida shartnomani bajarishga kirishmasa yoki sifatsiz xizmat ko'rsatsa, zararlar undirilishini talab bilan hududga murojaat etish.

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.3. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

xizmatlari uchun shartnoma tuzish va uning talablarini bajarish;

QMCH tashlanadigan konteynerlarni qurilish va yirik hajmdagi chiqindilar, shox-shabbalar bilan to'ldirmaslik, aksincha ularni maxsus joyga yig'ish hamda bu chiqindilarni tashib ketish uchun alohida shartnoma tuzish va haq to'lash;

Chiqindi saqlash qutilari joylashgan maydonchalar va chiqindi to'plash qurilmalariga avtomashinalarning erkin yaqinlashishini va chiqindi qutilarini doimo soz holda saqlashni ta'minlash;

QMCHni o'z vaqtida tashib chiqib ketilishini doimiy nazorat qilish, tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilgan hollarda _____ telefonga telefonagramma yo'llash orqali Ijrochiga ma'lumot berish;

Bajarilgan ishning hajmini Ijrochining hujjatlarida Iste'molchi vakilining imzosi va korxonamuxri bilan tasdiqlab borish;

Har oyning boshida o'tgan oyda bajarilgan ish hajmini bajarilganini ko'rsatuvchi hisob dalolatnomasini rasmiylashtirish;

Har oyda oyning oxirigacha o'tgan oyda bajarilgan ishlarning dalolatnomasiga asosan pul mablag'larini Ijrochining hisob raqamiga o'tkazish hamda rejaviy ish hajmiga qarab oldindan 100% kam bo'lmagan to'lovlarni amalga oshirish;

qattiq- maishiy chiqindilarni ko'chalarga, suv yo'llariga, ariq va qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va ko'mib tashlash uchun ajratilmagan joylarga, shuningdek harakatdagi avtotransport vositasidan yo'laklar va ko'chalarning transport yuradigan qismiga tashlamaslik;

chiqindilarni korxonahududida va ruxsat etilmagan joylarda ko'mib tashlashga yo'l qo'ymaslik.

4. SHARTNOMALARNI BAJARMAGANLIK YOKI LOZIM DARAJADA BAJARMAGANLIK UCHUN TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Iste'molchi quyidagilarga javobgar:

Shartnoma majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun;

QMCHni olib chiqib ketish xizmatiga o'z vaqtida to'lov to'lamaganligi uchun;

Shartnoma shartlariga ko'ra alohida belgilangan joylarda yig'ilgan QMCHni olib chiqib ketish xizmatini buzganligi uchun;

4.2. Iste'molchi shartnomada ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilgan har bir kuni uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% dan oshmagan miqdorida, penya to'laydi.

4.3. Ijrochi quyidagilarga javobgar:

ko'rsatilayotgan xizmatlarning muddatlari va kamchiliklarini bartaraf etish muddatlari buzilganligi aniqlangan holatlarda;

ko'rsatilayotgan xizmatlarning muddatlari va kamchiliklarini bartaraf etish uchun tayinlangan jarimani o'z vaqtida to'lamaganligi uchun;

Ijrochida mavjud bo'lgan qo'riqlanadigan va qo'riqlanmaydigan CHYMdagi konteynerlarning texnik holati uchun;

Ijrochi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar yoki sifatsiz xizmatlar oqibatida ishchilarning hayotiga, sog'ligiga va Iste'molchining mulkiga yetkazilgan zarar uchun;

4.4. Ijrochi tomonidan xizmat ko'rsatilmasa Iste'molchiga kechiktirilgan har bir kuni uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,5% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% dan oshmagan miqdorida, penya to'laydi. Penya to'lash tomonlarni shartnoma shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

5. SHARTNOMA MUDDATI.

5.1. Shartnoma muddati “ январь 2022 yildan “ 31 ” декабрь 2022 belgilanadi.

5.2. Ushbu shartnomaga oid bo'lgan O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlariga qo'shilgan va o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tomonlarning roziligi bilan shartnomaga tegishli qo'shimcha o'zgartirish kiritish uchun qo'shimcha shartnoma tuzish;

5.3. Shartnomani muddatidan oldin to'xtatmoqchi bo'lgan tomon ikkinchi tomonni bu haqida **10 oy oldin** yozma ravishda boshqa munosabat bildirmasalar shartnoma bekor qilingunga qadar o'z kuchini yo'qotmagan hisoblanadi.

5.4. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

6. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

6.1. Tomonlar orasida kelib chiqqan barcha kelishmovchilik va tortishuvlar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar, tomonlar tomonidan hal etilmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasida belgilangan qonunchilikka binoan sud orqali hal etiladi.

TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI:

“IJROCHI”

ТОЗА ХУДУД ДУК

Manzil: Урта Чирчик туман Халкобод МФЙ

Tel: _____

Bank nomi: Ипотека Банк Фархадский фил

H/r: 2021 0000 5007 8180 0034

MFO_00408 STIR_304 938 624

OKED _____





“ISTE'MOLCHI”

УРТА ЧИРЧИК ТУМАН ХТБ

Manzil: Уйгур МФЙ Ёшлик кучаси


Tel: _____

Bank nomi: Марказий Банк ББХКМ

H/r: 100022860272537092100075102

MFO_00014_STIR 200 582 514

OKED _____





Izoh: Yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomada, tegishli budjettan mablag' oluvchining G'aznachilik bo'linmasida ochilgan shaxsiy hisob varag'i ko'rsatiladi.